

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR INKLYUZIV TA'LIMINING ILMIY-
NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI**

Mamatova Aziza Bo'riboyevna

Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lism fakulteti Logopediya kafedrasi
dotsenti v.v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ilmiy tadqiqot yo'nalishi: 13.00.03 – Maxsus pedagogika

e-mail: aziza.mamatova123@gmail.com

Tayanch so'zlar va tushunchalar: inklyuziv ta'lism, maxsus ta'lism, maktab yoshi, nutqiy nuqson, ta'lism-tarbiya, korreksiya, reabilitatsiya, emotsiyal holat, integratsiya, reabilitatsiya.

Аннотация: Ushbu maqola imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'liming nazariy masalalariga, inklyuziv ta'lism tushunchasining mohiyatini, xususuiyatlarini, tamoyillarini olib berishga bag'ishlangan.

Ключевые слова и понятия: инклюзивное образование, специальное образование, школьный возраст, нарушения речи, образование, коррекция, реабилитация, эмоциональное состояние, интеграция, реабилитация.

Аннотация: Данная статья посвящена теоретическим вопросам инклюзивного образования детей с ограниченными возможностями здоровья, раскрытию сущности, особенностей и принципов понятия инклюзивного образования.

Key words and concepts: inclusive education, special education, school age, speech impairment, education, correction, rehabilitation, emotional state, integration, rehabilitation.

Abstract: This article is devoted to the theoretical issues of inclusive education of children with disabilities, to reveal the essence, characteristics, and principles of the concept of inclusive education.

2020-2025-yillarda xalq ta'imi tizimida inklyuziv ta'lism rivojlantirish konsepsiysi O'zbekistonda inklyuziv ta'lism rivojlantirish, alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini takomollashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lism xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha alohida ta'limga muhtoj bolalar ta'lism-tarbiya oladigan muassasalar binolariga qo'yilgan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; ushbu ta'lism muassasalarini zaruriy adabiyolar, o'quv qurollari, turli kasblar bo'yicha o'qitish uchun moddiy-texnik ba'za va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; inklyuziv ta'lism tizimini tashkil etish, ta'lism muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko'tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar), shuningdek, tegishli mutaxasislar bilan ta'minlash (maxsus o'qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxsisslar); alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash kabi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ—4860- son qaroriga asosan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lism rivojlantirish qarori bilan umumiylar ta'lism muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bolalarni inklyuziv o'qitish to'g'risidagi nizom

tasdiqlandi. Mazkur nizomga muvofiq inlyuziv ta'limning maqsad va vazifalari; maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich korreksion sinflarni tashkil etish tartibi va alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayoni; bolalarni inklyuziv ta'limga va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflariga qabul qilish tartibi; inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflarida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar; jismoniy, aqliy, hissiy yoki aqliy nuqsonli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari; sanatoriy-kurort tipidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim davlat muassasalari; jismoniy, sezgi yoki aqliy nuqsonli bolalar, shuningdek, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun yakka tartibda uyda ta'lim olish tartibi to'g'risidagi nizom ham tasdiqlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kelajak avlod salomatligi uchun" Davlat dasturlarida (2000-yil), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-2009-yillarga mo'ljallangan "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummiliy dasturi" haqidagi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 18-noyabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasining nogironlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha 1996-2000-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi"da sog'lom avlod tarbiyasiga davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifa sifatida qarash lozimligi ko'rsatilgan. "O'zbekiston Respublikasi nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabr № 422-XII sonli Qonuni"ning 2-moddasida "Nogironlar O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va boshqa Qonun hujjatlari bilan mustahkamlab, quyidagi barcha ijtimoiy, iqtisodiy, hamda shaxsiy huquq va erkinliklarga egadirlar. Nogironlarni kamsitish ta'qiqlanadi va qonunga muvofiq jazolanadi" deb qat'iy belgilangan[5]. O'zbekiston Respublikasida 2003-yil 2-mart kuni "Ta'lim hamma uchun" dasturining Milliy rejasi ishlab chiqilgan. "Ta'lim hamma uchun" dasturining Milliy rejasi YUNESKOning maslahatlari va moddiy ko'magi bilan 2000-yilgi Dakar shartnomalariga mos tarzda tuzilgan. Shuningdek, 2005-yilning 19-sentabr kuni Xalq ta'limi vazirligining 234-sonli buyrug'i bilan «Imkoniyati cheklangan bolalalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom»i tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasida 2005-yilda Respublika ta'lim markazi qoshida "Inklyuziv ta'lim resurs markazi"ning tashkil etilishi bu sohada ko'plab yutuqlarga erishishga asos bo'ldi.

Inklyuziv ta'limning nazariy tahlili jarayonida soha olimlari o'zlarining turli xil qarashlari bilan ushbu ta'lim shakliga ta'rif berib o'tganlar. Xorijlik olimlardan M.Budoff, D.A.Cole inklyuziv ta'lim har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etiladigan va imkoniyati cheklangan o'quvchilarni eng samarali ijtimoiylashuvini ta'minlaydigan o'qitish shakli deb nomlaganlar. T.Cronis inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga integratsiyalashning eng maqbul usuli deb hisoblagan. J.Gottiyeb hamda D.Gampel ham imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumtalim maktablarida inklyuziv ta'lim berish tarafdorlari sifatida ushbu ta'lm shaklining asosiy tamoyillarini asoslab bergenlar. C.Heise-Nett, A.Nevin inklyuziv ta'lim ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashning eng muhim o'qitish shakli ekanligini e'tirof etishgan. M.Britte Harbin tomonidan inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun do'stona munosabatlarni tarkib toptirishning ahamiyati va do'stona munosabatlarni tarkib toptirish yo'llari ochib berilgan.

M.M.Robinson, J.York, C.Mackdonald, L.Meyer, T.Vandercook esa inklyuziv ta'limda mustahkam huquqiy asos lozimligini va bu ta'lim shakli oldida turgan to'siq hamda muammolarni yengib o'tish yo'llari bo'yicha juda qimmatli ma'lumotlarni berib o'tgan.

Inklyuziv ta'lim muammosi xususida xorijlik olimlar bilan bir qatorda MDH davlatlari olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari va ilmiy tadqiqot ishlarini ham tahlil etildi. Inklyuziv ta'lim borasida Rossiyalik olimlardan N.N.Malofeyev, A.M.Gendin, A.A.Dmitriyev, L.I.Dmitriyeva, D.Karren, L.V.Kuznetsova, M.I.Nikitina, M.I.Sergeyev, L.M.Shipitsinalar tomonidan ma'lumotlar berilgan[136,137,138,139]. N.N.Malofeyev va N.D.Shamatkolar integratsiya-maxsus ta'limning qonuniy bosqichi deb hisoblagan[105]. M.Shipitsina esa integratsiyani ikkita turga ajratgan: ijtimoiy va pedagogik integratsiya. Ijtimoiy integratsiya turida aholi orasidagi ijtimoiy munosabatlarni imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim tizimiga moslashtirishni nazarda tutadi. Pedagogik integratsiyada bolaning qobiliyatlarini o'quv rejaga moslashtirish nazarda tutiladi.

Y.T.Matasov tomonidan inklyuziv ta'im hozirgi davrning eng muhim zaruriyati ekanligini va inklyuziv ta'limni joriy qilish mehanizmlari, O.Y.Razumova tomonidan esa eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilar inklyuziv ta'limi, G.V.Nikulina va I.N.Nikulinalar tomonidan esa ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi bolalar inklyuziv ta'limi, G.S.Ptushkin, T.A.Polenova, E.V.Traulkolar tomonidan esa inklyuziv ta'lim modellari o'rganilgan.

G.S.Ptushkin, T.A.Polenova, Y.V.Traulkolar inklyuziv ta'limni joriy qilish tamoyillarini asoslab bergenlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim tushunchasiga ham turli xildagi qarashlar va fikr-mulohazalar bayon qilingan. “Inklyuziv ta'lim bu davlat siyosati bo'lib, nogiron va imkoniyati cheklangan bolalar o'rtaсидаги то'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan bolaning ehtiyojlariini qondirish va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizmidir”-deb e'tirof etadi R.Sh.Shomaxmudova.

Inklyuziv ta'lim bolani emas ta'lim mazmunini o'zgartirishni taqozo qiladi. Inklyuziv ta'limga rivojlanishdagi psixo-fiziologik kamchiliklarni ijtimoiy ko'rinish hosilasi sifatida qarash mumkin. Nogironlikning ijtimoiy modeli barcha bolalarning individual-psixologik, o'zlashtirish xususiyatlari har xilligini hisobga olishni va maktab o'quv dasturlarini barcha bolalarning imkoniyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Inklyuzivlik-hamma bolani bir xil qilib qo'yish yoki “assimilyatsiya” sifatida anglashilmaydi. Uning mohiyati moslashuvchanlik – bolalarning nogironligi darajasiga muofiq har xil tezlikda ta'lim olishini hisobga olib o'qituvchidan ushbu jarayonnni qo'llab-quvvatlashi uchun bilim va ko'nikmalar talab qilishdir.

Ture Yonsan “Inklyuziv ta'lim bu bolaga uning imkoniyatlariga qaratilgan ta'lim ya'ni, ta'lim barcha bolalarga bir xil beriladi, bilimlariga qo'yiladigan talab har bir bolaning imkoniyatidan kelib chiqadi”-deb yozadi.

Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga to'liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar. Biroq imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va

kompensatsiyalashga yo'naltirilgan qo'shimcha ta'lim xizmatini ko'rsatish ma'suliyatidan ozod etilmaydi.

L.R.Muminova inklyuziv ta'lim jarayoni bolalar o'zlarining jismoniy, psixologik, intellektual, etnik-madaniy, til va boshqa xususiyatlaridan qatiy nazar unumiy ta'lim tizimiga kiritilishi ekanligini e'tirof etgan. L.R.Mo'minova inklyuziv ta'limning maqsadi, vazifalari, tamoyillari va joriy qilish bosqichlarini ham juda chuqur tahlil etgan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularga individual dasturlar tuzish borasida ham qimmatli ma'lumotlarni bergen.

Respublikamiz olimlaridan U.Y.Fayziyeva eshitishda va ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar inkluziv ta'limining metodik ta'minotini ishlab chiqishda juda katta hissa qo'shgan[93,94]. Jumladan, D.A.Nazarova inklyuziv ta'lim muassasalarida zaif eshituvchi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etish texnologiyalarini ishlab chiqqan.

Z.N.Mamarajabova tomonidan oliy o'quv yurtlarining surdopedagogika yo'nalishi uchun tuzilgan "Inklyuziv ta'lim" fan, o'quv hamda silabus dasturlarini asosida Respublikamiz milliy maxsus pedagogika sohasida inklyuziv ta'lim bo'yicha talabalarga mukammal nazariy bilimlar berib borilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ilk bora 2017-yilda L.R.Muminova, R.Sh.Shomaxmudova, Z.M.Axmedovalar tomonidan pedagogika oliy o'quv yurtlari logopediya yo'nalishi talabalari uchun 24 soatlik "Inklyuziv ta'lim" o'quv dasturi va o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan.

Respublikamiz olimlaridan imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'quv tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, D.A.Nurkeldiyeva va V.S.Alimova Daun sindromli bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish usullarini yoritib bergen.

O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumta'lim maktablariga inklyuziv ta'limga jalb etish 2019-2022 yillarga kelib juda jadallahshdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sod Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" tasdiqlangan. Ushbu Konsepsiyada 2030-yilga qadar umumiyl o'rta ta'lim tashkilotlarida imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ham jalb etish masalari belgilangan.

2020-yil 19-mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi "Inklyuziv ta'lim" deb nomlangan bo'lib, ushbu moddada inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi qatiyan kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-sod "Aloida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq "2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi", "2020-2025-yillarda xalq

ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi"ni 2020-2021-yillarda amalgam oshirish bo'yicha "Yo'l haritasi", "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari)" tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori asosida "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" Nizom tasdiqlandi[8]. O'zbekiston Respublikasida ham barcha xorijiy davlatlar qatori 2030-yilga qadar inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish maqsadida ko'plab amaliy ishlar amalgam oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yil 9-aprel kuni Xalq ta'limi vazirligining 113-sonli buyrug'i asosida Respublika bolalarni kasb hunarga yo'naltirish va tashxis markazi qoshida "Inklyuziv ta'lim labarotoriyasi" tashkil etildi. Yuqoridagi me'yoriy hujjatlar hamda "Inklyuziv ta'lim labarotoriyasi" faoliyat natijasida Respublikamizda 2021-2022-o'quv yilida 44 ta inlyuziv maktab ochilgan bo'lib, 87 nafar alovida ta'lim ehtiyojli o'quvchi jalb etilgan, 2022-2023-o'quv yilda esa 195ta inklyuziv maktablar tashkil etilib, jami 504 nafar imkoniyati cheklangan o'quvchilar inklyuziv talimga jalb etildi. Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim maktablari o'quvchilarini har tomonlama rivojlnirish, ijtimoiy hayotga tayyorlash eng muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Maxsus pedagogika tizimiga innovatseon shakl sifatida kirib kelgan inklyuziv ta'lim sharoitidagi imkoniyati cheklangan o'quvchilarining rivojlantirish, borasida muayyan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davr talabidir. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar inklyuziv ta'limining ilmiy-nazariy va huquqqiy asoslari tahlili inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilinishi, alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalgam oshirilishi, inklyuziv ta'limda o'qitish usullari hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etilishi, o'quvchilarining jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari sonini optimallashtirilishi tadqiqini kutayotgan dolzarb masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami.T.: Adolat, 2017-№6(766)-70-modda, -B.38.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston

Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. QHMMB: 06/19/5712/3034-son.

5. "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari to'plami. 2008. 29-30-son, 277-modda.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T.: 2017. 11 dekabr. 49-son, 195-modda.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga ta'lim-trbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'risida" gi Qarori. <https://lex.uz/docs>.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida to'risida" gi Qarori. <https://lex.uz/docs>

9. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 1-2-son, 1-modda, 2009-y., 52-son, 554-modda; 2016 y., 52-son, 597-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda.

10. Инклюзивное образование лиц с нарушениями в развитии: взгляд из Европы и России. Под редакции В.З.Кантор//Сборник научевых трудов. Санкт-Петербург. 2010 г. Стр 45-56.

11. Муминова Л.Р.Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. Т.: "Complex-print". 2018 й. -7 б.

12.Муминова Л.Р., Маматова А.Б. "Нутқ алифбоси".-Т.: "Bookmany print" 2022. 127-134 б.

13.Сулейменова Р.А, Хакимжонова Г.А. Зарубежный и отечественный опыт включения детей со специальными нуждами в общеобразовательной процессе. Проблемы и пути решения. - Алматы. 2001, -Стр 19.

14.Шомахмудова Р.Ш. Махсус ва инклюзив таълим. -Т.: "Шашма принт". 2018. -190- 198 б.

15.Шомахмудова Р.Ш., А.Б.Бердиева. Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиш услублари.-Т.: "Ишонч марказ сервис" 2008. -10- 17, 28 б.

16.Шомахмудова Р.Ш., Д.Тўлаганова, А.Б.Бердиева. Жисмоний ривожланишида муммолари бўлган болалар билан инклюзив таълим тизимида олиб бориладиган коррекцион педагогик ишлар.- Т.: "Раззоқов О.Ж". 2007 й. -10-28 б.

17. Шомахмудова Р.Ш. Инклюзивное образование - Инклюзивному обществу.-Т.: "Раззоқов О.Ж". 2007 й.-Стр 36-48.